

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, A.U.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mazmuni .....	9
<b>B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova</b>	
Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak musiqa ta'llimi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli .....	16
<b>N.M.O'ranova</b>	
Xorijiy ta'lilda tyutorlik faoliyatining mohiyati va funksiyalari .....	20
<b>B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish .....	24
<b>B.A.Umarov</b>	
Raqamli texnologiyalar vositasida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish tamoyillari .....	28
<b>I.M.Saidov</b>	
Vatanparvarlik va yuksak ma'naviy tarbiya - uchinchi renessans poydevorining omili .....	33
<b>M.I.Alimjonova</b>	
Ta'larning globallashuvi sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	37
<b>I.I.Yo'ibarsova</b>	
Talabalarda bioetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy an'analari hamda zamonaviy yondashuvlari.....	45
<b>M.I.Alimjonova</b>	
Talabalarni madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli.....	49
<b>F.A.Ibroximov, B.M.Jo'raqo'ziyev</b>	
Mafkuraviy immunitet va uning zarurati .....	56
<b>Z.J.Pardaeva</b>	
Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari.....	60
<b>F.A.Ibroximov</b>	
Huquqiy fanlarni o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikning mavjud holati.....	70
<b>L.D.Tuganova</b>	
Gender va ta'lilda tenglik muammosi .....	75
<b>Sh.X.Tog'aev</b>	
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy masalalari .....	78
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Talabalarda gender madaniyatini rivojlantirishning tuzilishi va tarkibiy qismlari .....	83
<b>G.S.Raxmonova</b>	
Nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishda mustaqil ishlarning pedagogik imkoniyatlari.....	87
<b>M.R.Usmanov</b>	
O'tish davri yoshidagi ruhiy o'zgarishlarning rivojlanish xususiyatlari.....	93
<b>X.Y.Jo'rayeva, M.T.Turkistonova</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishning nazariy asoslari .....	97
<b>E.S.Yuldashev</b>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	101
<b>G.B.Karimova</b>	
Jismoniy tarbiya fanning interfaol ta'lim usullari va ularni innovatsion faoliyatini shakllantirish ....	107
<b>F.O.Toshboltayev</b>	
Zamonaviy ta'lilda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash .....	111
<b>S.D.Akzamov</b>	
Jismoniy tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni bolalar va o'smirlar organizmiga ta'siri.....	115

**TA'LIMNING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA TALABALARDA MADANIYATLARARO  
MULOQOT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI**

**IN THE GLOBALIZATION OF EDUCATION PEDAGOGICAL CONTENT OF DEVELOPING  
INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE IN STUDENTS**

**В ГЛОБАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ  
ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ**

Alimjonova Mexriniso Ibroximjonovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Alimjonova Mexriniso Ibroximjonovna

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

**Annotasiya**

Mazkur maqolada ta'larning globallashuv sharoitida talabalarida madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlanishning pedagogik mazmuni, talabalarida madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlanish dolzARB vazifa bo'lganligi bois ularda mazkur kompetentlikka aloqador bilim va ko'nikmalarini muntazam takomillashtirishga qaartilgan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Аннотация**

В данной статье в условиях глобализации образования педагогическое содержание разведения межкультурной коммуникативной компетенции у студентов, развитие межкультурной коммуникативной компетенции у студентов является актуальной задачей, а также высказываются мнения по совершенствованию их знаний и умений, связанные с этой компетенцией.

**Abstract**

In this article, in the conditions of the globalization of education, the pedagogical content of the development of intercultural communication competence in students, the development of intercultural communication competence in students is an urgent task, and the opinions are expressed to improve their knowledge and skills related to this competence.

**Kalit so'zlar:** pedagogik-psixologik, globallashuv sharoit, madaniyatlararo munosabatlar, ijtimoiy zarurat, uzlusiz ta'lim, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

**Ключевые слова:** педагогико-психологические, условия глобализации, межкультурные отношения, социальная необходимость, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, образование и воспитание, научно-методические.

**Key words:** pedagogical-psychological, globalization conditions, intercultural relations, social necessity, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, education and upbringing, scientific-methodical.

**KIRISH**

Bugungi kunda mamlakatlar uchun milliy taraqqiyotni ta'minlash ko'p jihatdan madaniyatlararo munosabatlarga real baho berish, ularda yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish qobiliyatiga, hozirjavobligiga, milliy rivojlanishning progressiv va qarshi tura oladigan kuchlarning belgilay olishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham madaniyatlararo munosabatlarda va ko'p millatli ayrim olingan mamlakat doirasida ham u yoki bu millatning manfaatlariga zid keluvchi xatti-harakatlar yoxud turli salbiy omillar yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qiluvchi konsepsiyalarni nazariy jihatdan ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, bugun maktab va litseylarning o'quvchilaridan tortib, kollej va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan qizlarimizning ayrimlarining kiyinishlari, yurish-turishi va o'zaro munosabatlarda paydo bo'layotgan ommaviy madaniyat ko'rtaqlari haqida ham bosh qotirishimiz zaruriyati yuzaga kelmoqda. Tarbiya maskaniga o'z millatimiz farzandlarining ko'rimsiz va ma'nosiz holatda kirib kelayotganini afsus bilan aytishga to'g'ri keladi. Ularning qanday kiyinishi va nimani kiyishni qandaydir qaror bilan to'xtatish to'g'ri bo'lmas. Lekin unga befarq qarash ham milliy qadriyatlarimizga befarq bo'lismizga olib kelishi mumkinligini e'tibordan chetda qoldirib ham bo'lmaydi. Ular bunday kiyinish andozalarini xorijdan olmoqdalar. Ular televidiniye, internet va boshqa axbarot vositalar orqali tashviqot qilinmoqda, ommaviylashtirilmoxda. Mana shunday madaniyatlararo munosabatlар natijasining salbiy ta'sirlari oqibatida milliy qadriyatlarining qadrsizlanishi kuzatilmoxda. Shuningt uchun madaniyatlararo munosabatlarning salbiy ta'sirini oldini olish, ommaviy madaniyatning milliy mental xususiyatlariga qarshi tura olish ko'nikmalarini rivojlanish kerak bo'ladi. Buning uchun esa,

jamiyat a'zolarida, ayniqsa, yoshlarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish kerak bo'ladi.

Demak, globallashuv sharoitida madaniyatlararo munosabatlar va muloqotning jadallahib borishi, kengayishi va tezlashuvining salbiy jihatlari asosida turli yo'l va vositalar bilan milliy o'ziga xoslik va tarbiyaning ta'sirchanligiga zarar keltirmoqda. Uning ichidan va tashqarisidan yemirilishini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Lekin ba'zan yoshlarning yurish-turishi, kiyinish, axloq-odobi, muloqot tarzida va boshqalarda sodir bo'layotgan bunday o'zgarishlar ularning yoshi bilan bog'liq, ular ulg'ayib, hayotiy tajribaga ega bo'lganlardan keyin ana shunday o'zgarishlar o'tib ketadi. Ular axloqida bo'layotgan o'zgarishlarda globallashuv jarayonini ayblash to'g'ri bo'lmaydi, degan fikrlar ham mavjud. Biroq, madaniyatlararo munosabatlar natijasida yoshlarning qarashlari, muloqotga kirishuvchanligi va ularning yashash tarziga ta'sir ko'rsatayotganligi bejiz emas.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim vazifasi talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ijtimoiy jarayonni tushunishga, taraqqiyot qonunlarini anglashga yordam berishdan iborat. Bo'lajak mutaxassis o'z sohasining yetuk bilimdoni bo'lish bilan birga jamiyatni, ijtimoiy muhitni his qilishi ham muhim. «Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoxda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz, ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlilikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim».[1:125] Demak, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari ham ijtimoiy munosabatlarga kirishishning muhim talabi va turli ta'sirlarga qarshi turish immuniteti sifatida namoyon bo'ladi.

Talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini ijtimoiy-gumanitar fanlar hamkorligida rivojlantirish va ularni axloqiy va madaniy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyatga ega. Talabalarning ijtimoiy-axloqiy yuksalishini madaniyatlararo muloqot kompetentligi va tolerantlik nuqtai nazaridan tadqiq etish ulardan jamiyat a'zolar o'tasida kechirilmilik va konsensusni o'rnatishning muhim assosi bo'lib hizmat qiladi.

Agar bugungi kunda insonlarning, ayniqsa, yoshlarning kuchli informatsion bosim ostida yashayotganligini, ularning ko'pchiligi tarqalayotgan ma'lumotlar, internet va televedeniye orqali ko'rsatilayotgan ommaviy madaniyat va turli madaniyatlarning madaniy mahusulotlarini qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilayotganligi, ular o'z navbatida yoshlarning kundalik hayoti, xatti-harakatlarida o'z ifodasini topayotganligini hisobga oladigan bo'lsak yuqoridaq kabi bildirilayotgan fikrlarga qo'shilib bo'imasligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi. Shunday ekan, bu jarayonni oldini olish, ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlarni va talabalarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlash, o'zga madaniyatlar bilan tolerant, o'z milliy-madaniy qadriyatlarini unutmagan holda muloqotga kirish, madaniy hilma-xillikka oid dunyoqarashlarini shakllantirish kerak bo'ladi.

Aslida, yoshlarning har qanday yangilikni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishga moyilliigi kuchliligi to'g'ri. Ammo ularning globalashuv jarayonida madaniyatlararo muloqotga tortilishining qamrovi shu darajada kengki, u nafaqat kiyinish, ahloq-odob doirasini, shuningdek bu ongi, qalbi, ruhiyati va yuragini ham o'zgartirib yubormoqda. Shu ma'noda ular ulg'ayib, hayotiy tajribaga ega bo'lganlarda ham ana shu shakllangan ma'naviy salohiyat bilan yashashga majbur bo'ladilar. Chunki, o'zlarining madaniy o'ziga xosliklari ana shu yuksak taraqqiy qilgan o'zgarishlar hisobiga shakllangan ommaviy madaniyat ta'siri ostida boshqa turli salbiy jarayonlar ham ketadi.

Ta'limning globalashuvi sharoitida talabalar almashinuviga doir integrasion aloqalar jadalashayotgan vaziyatda umumbashariy qadriyatlarini e'zozlash, o'zga millat va elatlarning an'analari, urf-odatlari, diniy e'tiqodlarini qadrash va hurmat bilan munosabatda bo'lish juda muhimdir. Ushbu bag'rikenglik ruhiyatini talaba-yoshlarga singdirishning uslubiy jihatlarini yaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Chunki bugunning mutaxassisi ta'lim jarayonida kuchlarni birlashtiuvcchi, umumlashtiuvcchi, yo'naltiruvchi, safarbar etuvchi asosiy kuchi sifatida ko'rilmoxda. Lekin mamlakatimizdagi ta'lim jarayonida madaniyatlararo muloqotda bag'rikenglik namoyon bo'lganicha yo'q. Talabalarda bag'rikenglikni qaror toptirish bosh maqsadiga aylanib ulgurgani yo'q. Ayniqsa talabalarning ijtimoiy-gumanitar fanlardan bilimi va dunyoqarashining pastligi ta'lim jarayoniga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Talabalarning o'zi madaniyatlararo muloqotga tayyor bo'imasdan, milliy va diniy tolerantlikni anglab yetmasdan turib chet mamlakatlarda ta'lim olish

## PEDAGOGIKA

jarayonida uni qaror toptirishi dushvor. Shuning uchun avvalo talabalarni shu jarayonga tayyorlash kerak bo'ladi.

### Talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning maqsadi

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida talabalarni ijtimoiy faolligini oshirish va bag'rikengligini, tolerantligini va madaniy xilma-xillikni to'g'ri qabul qilishga doir ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ijtimoiy-pedagogik tadqiq qilish zaruratga aylanmoqda. Shu bois, talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini namoyon qilishda, diniy qarama-qarshiliklarga obyektiv munosabatda bo'lishda ijtimoiy-gumanitar fanlar bergen bilim va ko'nikmalar samaradorligini bo'layotgan voqealarni o'zi ko'rsatib turibdi.

### NATIJALAR

Har qanday madaniyat o'zining dunyonи idrok qilishiga asoslangan, o'z tafakkuri va xulq-atvorining stereotipini shakllantiradi. Stereotip u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi. V.A.Maslovaning ta'bıricha, "stereotip dunyoda mavjud tip bo'lib, u faoliyat, xatti-harakat va h.k.ni o'chaydi".[2:134] Stereotipler hech qachon alohida kishilarda paydo bo'lmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi. Umuman, madaniyatlararo muloqotda o'zbeklar mehmono'stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotliligi, xitoyliklar sertakallufligi, yaponlar xushmuomalaligi, estonlar sustkashligi, italyanlar qiziqqonligi, inglizlar sovuqqonligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqqargan.

Etnomadaniy yoki milliy stereotipler eng ko'p o'rganilgan bo'lib, ular biron bir xalqqa xos bo'lgan umumiyl xususiyatlarni ifodalaydi. Etnomadaniy stereotipler milliy guruhlar o'tasidagi munosabatlarni ko'rsatadi, muayyan millatning o'zini o'zi anglashi va mentalitetining tarkibiy qismi hisoblanadi, shuningdek, milliy xarakter bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.[3] Lingvokulturologiyani ko'proq etnomadaniy, ya'ni milliy stereotipler qiziqtiradi. Masalan, yaponlar bilan dastlab muloqotga kirishgan yevropaliklar yaponlarning qayg'uli hodisalar, jumladan, yaqin qarindoshlarining kasalligi yoki o'llimi haqida yuzlarida tabassum bilan gapirishlaridan hayratga tushishgan va hozirgacha hayratlanishadi. Bu kabi hodisalar berahm, shavqatsiz yapon stereotipi shakllanishiga asos bo'lgan. Biroq mazkur holatda tabassumni Yevropa madaniyatining o'chovlaridan emas, balki yapon madaniyatining o'chovlaridan kelib chiqqan holda tushunish maqsadga muvofiqdir.[4] Chunki qayd qilingan holat yaponlarning atrofdagilarni o'zining qayg"usi bilan bezovta qilmasligini namoyon qildi.

Bugungi ta'lif jarayonida fanlararo hamkorlik talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning murakkab ichki munosabatlarini quyidagilar tashkil etadi: pedagogik jarayonni tashkil etuvchi holatlarning birligi va mustaqilligi; yaxlitligi va teng huquqligi; umumiyl mavjudlik va o'ziga xoslikni saqlashda namoyon bo'ladi. Fanlararo hamkorlik asosida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmunini uning maqsadi, vazifasi, metodlari, o'qitish texnologiyasi va erishilgan natijalar tahlili tashkil etadi. Ushbu jarayonda pedagoglar, talabalar va tarbiyaviy shart-sharoitlar ishtirot etadi.

Bugun globallashuv o'zining qamrovi, ta'sir kuchi, tobora ommaviy tus olishi bilan kam taraqqiy qilgan va endi taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlar xalqlarini madaniy xususiyatlariga tajovuz qilmoqda, ularning zaminlarini yemirmoqda va istiqbolda ommaviy madaniyat ta'sirida ularning barbob bo'lishiga zamin tayyorlamoqda. Bu tajovuz nafaqat ommaviy axborot vositalari televediniye, internet yoki uyali telefonlar vositasida, shuningdek yoshlarning hayot kechirishi va turmushi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy munosabatlar vositasida, o'zga madaniyatlar bilan turli shaklda, misol uchun ta'lif turizmi shaklida ham amalga oshirilmoqda. Gohida globallashuvning ta'sirida sodir bo'layotgan madaniy integrasiyalashuv natijasida mamlakatlar iqtisodiyotidagi ijobjiy siljishlarning odamlarning moddiy sharoitida o'z ifodasini topayotganligi ko'rsatkichi ta'sirida madaniyatlararo iqtisodiy muloqot ham kengayib bormoqda. Ammo bugun taraqqiyot yo'liga kirgan va kam taraqqiy qilgan mamlakatlarning iqtisodiyoti barqarorlashganidan keyin esa ularda yashayotgan xalqlarning madaniy rivojlanish imkoniyati cheklanib qo'yadi yoki ularning madaniy xususiyatlarini inqirozga uchratib, o'z madaniy normalarinisingdiradi.

Фанлараро ҳамкорлик асосида талабаларда  
маданиятлараро мuloқot компетентлигини  
ривожлантиришнинг педагогик жараёни  
вазифалари

- а) маданиятлараро мuloқot компетентлигини ривожлантиришда амалга ошириладиган педагогик шарт-шароитлар;
- б) фанлараро ҳамкорлиқда маданиятлараро мuloқot компетентлигини ривожлантиришнинг инновацион педагогик назарияси ва амалиётининг ижобий томонлари;
- в) маданиятлараро мuloқot компетентлигини ривожлантиришнинг методик тизимида инновацион педагогик ваахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш ўрни ва йўллари;
- г) фанлараро ҳамкорлик асосида ўқитишнинг методик тизими: мақсади, мазмуни, шакли, воситалари ва методлари ҳамда технологиялари.

### **Fanlararo hamkorlik asosida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik jarayoni vazifalari**

Ta'larning globallashuvi natijasida ko'plab talaba-yoshlarning turli mamlakatlarda tahlil olishi, ta'lim hamkorligi orqali talabalar almashinuvchining kuchayib borishi, tarli rivojlangan davlatlarda ta'lim grantlarini yaratish orqali rivojlanayotgan davlatlardan yoshlarni jalb qilish, bu orqali ularga ta'lim berish bilan birga o'z madaniy qadriyatlarni o'rnatib borish, singdirish orqali ularning milliy madaniy qadriyatlarni unutirishga harakatlar kuchayib bormoqda. Natijada jamiyatda madaniyatlar eksporti natijasida, yoshlarning o'zga madaniyatlaraga bog'lanib qolishi natijasida kelib chiqayotgan madaniy muammolarga, urf-odat, an'ana, qadriyatlarning xiralashuviga o'tkazayotgan ta'siriga qarshı kurashmoq, kerak bo'lsa unga qalqon bo'la oladigan omilni shakllantirish bugun milliy tarbiyamiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan birini tashkil qiladi. Buning uchun esa, yoshlarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish va bu orqali ularning muloqot dunyoqarashi va madaniy munosabatlarga nisbatan teran tafakkurni shakllantirish, o'z milliy qadriyatlarni unitib, jamiyatning qadriyatlarni ham mensimisalik kabi salbiy holatlarga qarshi tura oladigan yoshlarni tarbiyalash mumkin bo'ldai. Globallashuv natijasida madaniyatlararo munosabatlarning osonlashib borishida madaniy munosabatlarning salbiy ta'siriga qarshi turish, uning milliy o'ziga xoslikning yemirilishiga o'tkazayotgan ta'sirini qirqishning asosiya va ma'rifiy omili bu milliy-ma'naviy immunitetni shakllangirishdir. Nega ma'rifiy omili degan tushunchaga alohida ypg'y berayotganligimizning sababi shundaki, bu jarayonki zo'ravonlik, kuch ishlatalish yoki cheklash bilan to'xtatishning hech ham imkoniyati yo'qligidir. Agar unga qarshi tura oladigan milliy-ma'naviy omilni shakllantira olsak milliy ma'naviy zaminlarni taraqqiyotimizning ehtiyoji darajasiga ko'tara olsak globallashuvning milliy ma'naviy hayotga o'tkazadigan ta'sirining payi qirqlishi tabiiy jarayon sifatida amalga oshib boradi.

Ta'larning globallashuvi natijasida talaba-yoshlarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlash, madaniyatlararo munosabatlardagi salbiy ta'siridan saqlash, ehtiyoj qilish uchun ularda milliy-madaniy meros, urf-odat, an'analarning eng ilg'or xususiyatlarni, madaniy qadriyatlarni singdirish orqali milliy ong, dunyoqarash, ruhiyatni shakllantirish, o'zligini anglatish, milliy g'urur va tuyg'ularini mustahkamlash, milliy manfaat, millat istiqboli uchun mas'ullikni ongi va qalbiga singdirish, milliy-madaniy asosimizdagi boy meros asosida ma'naviy boyitish borasida olib boriladigan amaliy faoliyat yo'nalishidir. Madaniy aloqalar xalqlarning o'zaro muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatlarning o'zaro ta'sirida ular bir-birini to'ldirish bilan birga, murakkab munosabatlarga ham kirishadi. O'zaro ta'sir jarayonida har bir madaniyatning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi, o'zga madaniyatning yaxshi, ijobji tomonlari o'zlashtiriladi.[5] Mazkur madaniyat vakillari o'zga madaniyat

## PEDAGOGIKA

o'zlashmalariga bog'liq bo'lgan o'zgarishlarga moslashishga va ulardan o'z hayotlarida foydalanishga majbur bo'lishadi. «Yangi madaniy sharoitlarga moslashish zarurati bilan muayyan muddatga xorijga chiqqan va o'zga madaniyat bilan munosabatga kirishgan ishbilarmonlar, olimlar; chet ellarda ko'p yillar yashagan talabalar; xorijiy shirkat vakillari; missionerlar; davlat rahbarlari, diplomatlar; boshqa davlatga doimiy yashash uchun ixtiyoriy yoki majburiy ravishda ko'chib kelgan muhojirlar, qichoqlar va h.k. yangi jamiyat va madaniyatga shunchaki moslashishi emas, balki uning to'laqonli a'zosi bo'lishi lozim. Odatda boshqa mamlakatga ko'chishga va u yerdagi hayot sharoitiga ruhiy jihatdan tayyor bo'lmagan qichoqlarga nisbatan ko'chishni ixtiyor qilgan muhojirlar bunga yaxshi tayyorlangan bo'ladi. Bunday murakkab jarayon oqibatida kishi ko'proq yoki ozroq darajada yangi madaniy muhitga moslashishga erishadi». [6:624] Bularning barchasi madaniyatga moslashish jarayoni hisoblanadi. Madaniyatga moslashishning asosida kommunikativ jarayon yotadi. Xuddi shunga o'xshash mahalliy aholi ham bir-biri bilan o'zaro munosabatlar orqali o'zining madaniy xususiyatlarini egallab boradi, o'z navbatida boshqa joydan kelganlar ham yangi madaniy sharoitlar bilan tanishadi va muloqot orqali yangi malakalarga ega bo'lishadi. Shuning uchun madaniyatga moslashish jarayoniga yangi madaniyatda kommunikativ qobiliyatlarni egallah sifatida qarash mumkin. [7:100] Kishilar muntazam muloqot orqali yangi sharoit uchun kerakli bo'lgan narsalarni o'zlashtirib boradilar.

### MUHOKAMA

Talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning maqsadini quyidagilar tashkil etadi.

- oliv ta'lismuassasasi talabalarini, madaniyatlararo muloqotga tayyorlashda fanlararo hamkorlikning samaradorligini aniqlash;
- fanlararo hamkorlik asosida madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishda tarix, falsafa, dinshunoslik, madaniyatshunoslik, huquqshunoslik, fuqarolik jamiyati va milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi fanlarining o'rni va ahamiyatini yoritish;
- talabalarda diniy va madaniy bag'rikenglikni shakllantirishda dinshunoslik fani va u asosida olib boriladigan pedagogik jarayon samarasini tahlil qilish;
- huquqshunoslik fanini o'qitish texnologiyasini takomillashtirish orqali talabalarda madaniyatlararo muloqotning huquqiy tomonlarini anglashga o'rgatish;
- madaniyatshunoslik ta'limi orqali talabalarni madaniyatlararo munosabatlarni tushunishga, bugungi globallashuv jarayonida madaniyatlar to'qnashuvini o'rganishga va unga qarshi madaniyatlararo totuvlik ko'nikmasini shakllantirish usullarini tahlil qilish;
- falsafiy fanlar doirasida talabalarda axloqiy va estetik tolerantlik ruhiyatini shakllantirish, shuningdek, falsafiy dunyoqarashini o'stirish va teran tafakkurni rivojlantirish orqali toqatli va chidamli xulq-atvor va hissiyotni shakllantirish yo'llarini aniqlash;
- talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishda milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi fani orqali shakllanadigan madaniyatlararo tolerant muloqot, totuvlik, tenglik, birdamlik g'oyaligaga doir milliy strategiyamizni, shuningdek, milliy g'urur, milliy vijdon, vijdon erkinligini ahamiyatini ko'rsatib berish;
- fuqarolik jamiyati ta'limi orqali jamiyatda qonuniylik, adolat, erkinlik va farovonlikni ta'minlashda shu mamlakatda yashovchi millat va elatlar, turli madaniyat vakillarining muloqoti, tenglikka va birdamlikka asoslangan munosabati va faoliyati muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatib berish hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon quyidagi vazifalarni belgilab oldi.

- oliv ta'lismuassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'tilishining mavjud xolati, ijtimoiy muammolarni yechish jarayonida fanlararo hamkorlikni amalga oshirish mexanizmlari va tashkiliy usullari yo'nga qo'yilganligi;
- talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning bir-biri bilan bog'liqligi, aloqadorligi, bir-birini to'ldiruvchanligi, metodlarining o'xshashlilgi hamda mutanosib tarbiyaviy ahamiyati mavjudligini tizmili tahlil qilish;
- talabalarga dinshunoslik fanini o'qitish xolati, pedagogning dars o'tishdag'i yondashuvi va neytral diniy munosabat asosida bilim berish ko'nikmasini o'rganish va yangicha ta'lum texnologiyasini taklif qilish;
- talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishda huquqshunoslik fanining dinshunoslik fani bilan hamkorligini o'rganish, madaniyatlararo munosabatlarda huquqiy tenglik va

erkinlikni diniy manbaalarda talqin qilinishi va dinshunoslik fani doirasida insonlarni diniy bag'rikengligini huquqiy asoslanishi o'ttasidagi aloqadorlikni tahlil qilish;

- falsafa va madaniyatshunoslik fanlari doirasidagi o'tiladigan mavzular va dars mashg'ulotlari asosida madaniyatlar tuzilishi, kelib chiqishi, rivojlanishi va inqirozini, madaniy munosabatlar mazmunini, ahamiyatini, madaniyatlar to'qnashuvi va u asosida bir madaniyatning tanazzulini, shuningdek, madaniyatlararo muloqotning falsafiy mohiyatini va kelgusi takomilini anglashga yordam berishi.

Mazkur ustuvor vazifalar asosida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik tizimini yaratish texnologiyalari va ta'lim modelini ishlab chiqiladi. Bu ishni amalga oshirishdan avval olyi ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'tilish holati, saviyasi, samaradorligi, fanlararo hamkorlikni yo'nga qo'yilganligining mavjud xolati o'rganildi. Ilmiy ishning gipotezasiga ko'ra, Mamlakatmizdagi olyi ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilish xolati yaxshi, pedagog va talaba o'ttasida ilmiy izlanishlar yo'nga qo'yilgan. Lekin ijtimoiy-gumanitar fanlar o'ttasida fanlararo hamkorlik mavjud emas, ijtimoiy muammolar fanlararo yondashuv asosida o'rganilmaydi, natijada talabalarda ijtimoiy jarayonlarga munosabati yetarlicha shakllanmaydi.

Madaniyatlararo muloqot muhitida lisoniy salohiyat hamkorlar orasida aloqa vositasi sifatida foydalilaniladigan til qoidalaring mavhum tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Lisoniy salohiyat muloqot jarayonidagi zaruriy shartlardan biri hisoblanishiga qaramay, u o'zaro ta'sir samaradorligi uchun yetarli bo'lmaydi.[8] Binobarin, hamkorlar kommunikativ salohiyatga ega bo'lisi – aniq ijtimoiy vaziyatlarda qo'llaniladigan qoidalarni bilishi, shuningdek, kognitiv salohiyatga – muloqot tilida so'z yasash va fikrlarni jamlash (nutq hosil qilish) malakasiga ham ega bo'lisi lozim. Turli madaniyat sohiblari bilan muloqot chog'ida ko'pincha lisoniy xarakterdagи muammolar birinchi planga chiqadi. Stefaniya ismli talaba Ispaniyada o'qiyotgan paytda yuz bergan vaziyatni tasvirlab beradi. U mezbon oiladagi opalari bilan birga yopiq hovuzga boradi. Arizonadan kelgan Stefaniya bunday sovuq suvda cho'milishga odatlanmagan edi. Shuning uchun u quyoshda toblanish uchun tashqariga chiqadi. Uning "opalari" undan nega ular bilan cho'milmaganini so'rashadi. Stefaniya shunday tushuntiradi: Ayni damda men ular bilan birga bo'lismim kerak, deb o'yladim... Men ularga holatimni qanday qilib yetarli darajada tushuntirishni bilmas edim... Harakat qildim, biroq buni yaxshi natija berishiga ishonmadim... Shuning uchun kechirim so'rab qoya qoldim... To'qnashuvga umuman e'tibor bermadim. Bu muammoni hal qila olardim, lekin holatimni batatsil tushuntirish uchun lisoniy qobiliyatimning yetarli emasligi anlab yetdim... Bu muammo men aytishni xohlaganlarimni ifodalab berolmaganim uchun yuzaga kelgan edi.[9]

Madaniyatlararo muloqot kompetentligi o'zga madaniyatlar vakillarini kamsitish, humatsizlik bilan munosabatda bo'lish, ularning manfaatlarini hisobga olmaslik kabi yoki bir madaniyatni boshqa madaniyatdan ustun qo'yishga qaratilgan dunyoqarash va ruhiyatni shakllantirishga qaratilgan faoliyat emas, balki uning muhim xususiyatlari qatorida o'zga madaniyatlar bilan inoq yashash, ularni hurmat qilish, yordam ko'rsatish, milliy va umumbashariy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish kabi maqsadlarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham u bir tomonidan milliy qadriyatlardan birini tashkil qilsa, ikkinchi tomonidan umuminsoniy qadriyatlarning ham ajralmas qismi hisoblanadi. Madaniyatlararo munosabatlarga oid tarbiyaning negizini o'z madaniy sifatlarini ulug'lash, uning manfaatlari va istiqboli yo'lida fidoiylik ko'rsatish, o'zga madaniyatlar bilan totuvlikda yashash va diniy bag'rikenglikka amal qilish kabilalar tashkil qiladi.

Har qanday tarbiyada bo'lganidek yoshlarda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda ham aniq maqsadlar ko'zlanadi. Globallashuv avj olayotgan bugungi kunda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning strategik yo'nalishini keng ma'nodagi madaniy o'ziga xosligimzni millatimizga yot bo'lgan turli zararli ta'sirlardan himoya qilish, uni yoshlarmiz ongi, qalbi, dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish tashkil qiladi.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida noverbal muomala muhim o'rinn tutadi. Biqor mazkur muloqotda qo'llanilgan ramzlar o'zaro aloqa ishtirokchilari uchun turli ma'no kasb etishi mumkin. Bunday nomuvofiqlik o'zaro aloqa samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, aksariyat madaniyat vakillari birovni chqirish uchun qo'lini oldinga uzatib, kaftini yuqoriga qaratib to'rtta barmoq yoki ko'rsatkich barmoq bilan "bu yerga kel" deb ishora qiladilar. Uzoq Sharq madaniyati mazkur qo'il harakati itlarni chaqirish uchun qo'llaniladi. Kishilarga nisbatan esa qo'lini oldinga uzatib, kaftini pastga qaratib to'rtta barmoqni silkitish harakatidan foydalilaniladi. Turfa madaniyat vakillarining noverbal muomalasidagi sezilarli darajadagi farqlar madaniyatlararo o'zaro munosabatlarda har doim ham jiddiy to'siq sifatida qabul qilinmaydi. Ko'pincha nomuvofiqlik, dastlab kishilarning ajablanishi va

## PEDAGOGIKA

bezovtalanishiga sabab bo'ladi, ularga g'ayrioddii va g'alati bo'lib tuyuladi.[10] Biroq ma'lum vaqtidan so'ng noodatiy vaziyatga ko'nikiladi va hamkordan o'zlashtirilgan ramzlardan foydalanishga kirishiladi.

Bugungi globallashuv jarayonida turmushimiz va hayotimizning barcha sohalariga o'zga mamlakatlar xalqlari hayotidagi ko'pgina urf-odat, an'ana va qadriyatlar jadal kirib kelmoqda. Albatta, ularning biz uchun maqbul bo'lganlarini qabul qilishimiz mumkin. Ammo ularni ko'r-ko'rona, o'zimizni hisobiga qabul qilishimiz maqsadga muvofiq emas. Masalan, millatimizda asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan ota-onamizni ulug'lash, oila muqaddasligini himoya qilish, farzandning ota-ona oldidagi burchi, ularning gaplariga qulq solish, qilinadigan har bir katta ishlarni bamaslahat amalga oshirish, aka-ukalar, aka va singillar, kelin qaynota, qaynonalar o'ttasidagi o'zarboq bog'liqliq mehr-oqibat, ustoz va shogird hurmati kabi muqaddas qadriyatlarni qayta tiklash madaniy qadriyatlarimizga asoslangan tarbiya oldida turgan eng dolzarb vazifadir. Ammo bugun Yevropaga xos bo'lgan individualizm, ota-ona hoidan xabar olmaslik, hatto ular vafot etganda oxirgi manzilgacha kuzatishga yaramasliq aka-uka, aka-singillar o'ttasidagi yaqinlikning bo'imasligi va ularning bir-birini qo'llab-quvvatlamasliklari va boshqa bir qator holatlar madaniyatlararo muloqot jaorayonida jamiyatimizga kirib bormoqda. Bunday salbiy jarayonlarning oldini olish uchun ham globallashuv jarayonida sodir bo'layotgan ana shu salbiy holatlarni bartaraf etish, madaniyatlararo munosabatlarga nisbatan aniq strategiyani shakllantirish, yoshlarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishtalab etiladi.

Ta'limning globalashuvi natijasida ta'lim olish chegaralarining yo'qolib borishi, ta'lim olish makonining kengayib borishi natijasida talaba-yoshlarda madaniy xilma-xillikka doir dunyoqarash ham shakllanib bormoqda. Turli madaniyatlar bilan tanishuvchi, ularning vakillari bilan birga tahsil olishi, yashashi orqali madaniyatlararo muloqot kompetentligiga har qachongidan ham ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bois jamiyatimizning milliy taraqqiyot strategiyasida va ta'lim tizimida madaniyatlararo muloqot kompetentligini shakllantirishni o'zida mujassamlashtirgan ilmiy konsepsiyani ishlab chiqish zarur bo'ladi. Bugun u yo'q demoqchi emasmiz. Albatta ular mavjud, ammo ular tarqoq, tizimga keltirilmagan. Ayrimlari real hayot bilan uyg'unlashtirilmagan. Shuning uchun ham ularning ta'sirchanligi deyarli sezilmaydi. Tashqaridan o'tkazilayotgan ta'sirlar esa jadallik bilan ommaviylashib ketmoqda. Bu ta'sirlardan himoyalanishimizga barcha imkoniyatlarimiz bor, faqat ulardan samarali foydalanishimiz uchun millatimiz oldidagi mas'uliyatimizni anglashimiz va uning istiqboli haqida hozirdan qayg'urish rouhiyatini ommalashtirishimiz lozim bo'ladi.

Talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishda, tolerantlik ruhida tarbiyalashda ijtimoiy-gumanitar fanlar muhim ahamiyatga ega ekanligini va bu borada ushbu fanlarning vazifalari nimalardan iborat ekanligini birma-bir ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishda, diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda huquqshunoslik fanining o'rni yuqori hisoblanadi. Huquqshunoslik fani talabalarga madaniyatlararo muloqotning milliy va umuminsoniy huquqiy tamoyillarini, huquqiy asoslarini, xalqaro tashkilotlarning munosabatini asoslashga hizmat qiladi. Huquqshunoslikni o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida davlat va din o'ttasidagi munosabatini ifodalovchi moddalarni o'rganish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilsa, dars jarayonida O'zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunini o'rganish dunyoviy davlatning denga bo'lgan munosabati, fuqarolarning e'tiqod erkinligi va diniy tolerantlikning huquqiy maqomi to'g'risidagi bilimlarning chuqurlashuviga olib keladi. Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi, BMTning Bag'rikenglik tamoyillari deklarasiyasini o'rganishda, madaniyatlararo munosabatlarni qonuniy yo'liga qo'yishdagi huquqshunoslik fanining ahamiyati yuqori sanaladi.

### XULOSA

Talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishda dinshunoslik imkoniyatlaridan ham samarali foydalanish mumkin. Misol uchun, dinshunoslik fani orqali diniy bag'rikenglikning jahon tamadduniga ta'sirini tushuntirish mumkin bo'ladi. Shuningdek, vijdon erkinligi, har bir insonning hoxlagan denga e'tiqod qilish huquqining ijtimoiy taraqqiyotda mukammalashuvini dinshunoslik ilmi va nuqtai nazaridan tushuntirish mumkin. Ushbu fan talalarni diniy tolerantlik ruhida tarbiyalashdag'i ahamiyati beqiyosdir. Chunki dinshunoslik fanida diniy ta'limotlarning mohiyati, kelib chiqishi, taraqqiyoti, jamiyat hayotida tutgan o'rni masalalari ochib berilib, diniy ta'limotlarda ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik, mehr-shafqat, adolatparvarlik, poklik-halollikning inson ma'nnaviy kamolotida tutgan o'rni hamda ahamiyati bir mucha keng tarzda yoritiladi. Islom dini va boshqa din vakillarining urf-odat, an'ana, udumlarining diniy ta'limotlar bilan bog'liqligini o'rganish

kishilar o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishiga, ularda insonparvarlik tuyg'ularining kuchayishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lganligi bois ularda mazkur kompetentlikka aloqador bilim va ko'nikmalarini muntazam takomillashtirishga qaartilgan samarali texnologiyani ishlab chiqish va uni amalgalashirishga qaratilgan tizim ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент: Ўзбекистон. 2017, 1-том, -Б.125.
2. Маслова В.А. Связь мифа и языка // Фразеология в контексте культуры. –М., 1999. –С. 123-134.
3. Усманова Ш. Этномаданийстереотипларнингвомаданийтаҳлили // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VI. –Тошкент: "Akademnashr", 2015. –Б. 120-121.
4. Madon S., Guyll M. Ethnic and National Stereotypes: The Princeton Trilogy Revisited and Revised. Iowa State University // <http://public.psych.iastate.edu/madon/katz.braly.replication.pdf>
5. Усмонова Ш. Рихсиева Г. Маданиятлараро мулоқот. Ўқув қўлланма. –Тошкент.: ТошДШИ. 2017. –Б. 69-70.
6. Усмонова Ш. Рихсиева Г. Маданиятлараро мулоқот. Ўқув қўлланма. –Тошкент.: ТошДШИ. 2017. –Б. 78.
7. Берри Д.У. Аккультурация и психологическая адаптация. –М: Наука, 2002. –С.296.
8. Усмонова Ш. Рихсиева Г. Маданиятлараро мулоқот. Ўқув қўлланма. –Тошкент.: ТошДШИ. 2017. –Б. 100.